

**BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA PREDMETLARARO ALOQALARNING
MAZMUNI, TURLARI VA DIDAKTIK AHAMIYATI****Ramazonova Dilduza Ochilovna**

Osiyo xalqaro universiteti

MM1-BT25-guruh magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18239774>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida predmetlararo aloqalarning nazariy-metodik asoslari, ularning mazmuni, turlari va didaktik ahamiyati chuqur tahlil etilgan. Hozirgi zamon ta'lim tizimida fanlararo integratsiya o'quvchilarda bilimlarning yaxlit tizimini shakllantirish, ularni real hayot bilan bog'lash hamda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda fanlararo aloqalarni samarali tashkil etish ularning tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada yetakchi xorijiy va mahalliy pedagog olimlarning predmetlararo aloqalar masalasiga oid ilmiy qarashlari tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda predmetlararo aloqalarni amalga oshirish metodlari, mavjud muammolar va istiqboldagi tadqiqot yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: predmetlararo aloqalar, integratsiya, boshlang'ich ta'lim, didaktik ahamiyat, kompetensiya, fanlararo yondashuv.

Abstract. This scientific article provides an in-depth analysis of the content, types, and didactic significance of interdisciplinary connections in primary education. In the context of modern educational reforms, interdisciplinary integration plays a crucial role in developing students' holistic understanding of the world, functional literacy, and key competencies.

Considering the age and psychological characteristics of primary school students, the effective implementation of interdisciplinary connections becomes a fundamental pedagogical task. The article examines the scientific views of prominent international and national scholars on interdisciplinary education. Additionally, the article discusses teaching methods, existing challenges, and future research directions related to interdisciplinary connections in primary education.

Keywords: interdisciplinary connections, integration, primary education, didactic significance, competency-based approach.

Аннотация. В статье всесторонне рассматриваются содержание, виды и дидактическое значение межпредметных связей в процессе начального образования. В условиях модернизации системы образования межпредметная интеграция выступает как важнейший фактор формирования у учащихся целостной картины мира, функциональной грамотности и ключевых компетенций. Особое внимание уделено возрастным и психологическим особенностям младших школьников, что обуславливает необходимость системного и методически обоснованного использования межпредметных связей в учебном процессе. Проанализированы научные труды зарубежных и отечественных педагогов, раскрыта роль межпредметных связей в развитии мышления, познавательной активности и самостоятельности обучающихся. В статье системно проанализированы научные взгляды ведущих зарубежных и отечественных педагогов по проблеме межпредметных связей.

Кроме того, освещены методы реализации межпредметных связей в начальном образовании, существующие проблемы и перспективные направления дальнейших исследований.

Ключевые слова: *межпредметные связи, интеграция, начальное образование, дидактическое значение, компетентностный подход.*

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, fan va texnika yutuqlarining tezkor rivojlanishi, mehnat bozorida kompetensiyaga asoslangan talablarning kuchayishi ta'lim mazmuni va metodlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning keyingi intellektual va ijtimoiy rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli bu bosqichda o'quvchilarga beriladigan bilimlar tizimli, mazmunan boy va real hayot bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarur.

An'anaviy ta'lim tizimida fanlar ko'pincha alohida-alohida, bir-biridan uzilgan holda o'qitilgan. Natijada o'quvchilarda bilimlar parchalangan, mantiqiy bog'lanmagan holda shakllangan. Zamonaviy pedagogika esa bunday yondashuvdan voz kechib, predmetlararo aloqalar va fanlararo integratsiyani ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy didaktik omillardan biri sifatida qaramoqda¹. Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrofdagi borliqni yaxlit holda idrok etishga intiladi. Ularning tafakkuri sintezga moyil bo'lib, alohida fanlarga bo'lingan bilimlardan ko'ra, bog'langan va umumlashtirilgan tushunchalarni osonroq qabul qiladi. Shunga qaramay, amaliyotda boshlang'ich ta'limda predmetlararo aloqalarning yetarli darajada amalga oshirilmasligi, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va darsliklar mazmunida integrativ topshiriqlarning kamligi kuzatilmoqda.

Mazkur holat quyidagi muammolarni yuzaga keltirmoqda:

- o'quvchilarda bilimlarning parchalanib qolishi;
- fanlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarning anglanmasligi;
- bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarining sust rivojlanishi;
- funksional savodxonlik darajasining pastligi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — boshlang'ich ta'lim jarayonida predmetlararo aloqalarning mazmuni, turlari va didaktik ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda ularni amaliyotga samarali joriy etish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- predmetlararo aloqalar tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berish;
- ularning turlarini ilmiy manbalar asosida tasniflash;
- yetakchi pedagog olimlarning mazkur masala bo'yicha qarashlarini tahlil qilish;
- xalqaro tadqiqotlar statistikasi asosida fanlararo yondashuvning samaradorligini asoslash;
- boshlang'ich ta'limda predmetlararo aloqalarni amalga oshirish metodlarini yoritish;
- mavjud muammolar va istiqboldagi tadqiqot yo'nalishlarini aniqlash.

Maqolani tayyorlashda dialektik bilish nazariyasi, tizimli va kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

¹ Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.

Shuningdek, pedagogika sohasidagi ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tadqiqotlar materiallari tahlil qilindi².

ASOSIY QISM(OCHOBHAY ЧАСТЬ / MAIN PART)

Pedagogika fanida “predmetlararo aloqalar” tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muomalaga faol kirib keldi. Mazkur tushuncha ta’lim jarayonida alohida fanlar mazmunining o’zaro uyg’unlashuvi, umumiy tushunchalar, qonuniyatlar, faoliyat usullari va bilish metodlari orqali bir-biri bilan bog’lanishini ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlarda predmetlararo aloqalar ta’lim mazmunining tizimlilik va yaxlitligini ta’minlovchi muhim didaktik omil sifatida baholanadi³.

V.S. Lednev predmetlararo aloqalarni ta’lim mazmunining strukturaviy komponenti sifatida talqin qilib, ularni o’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning zaruriy sharti deb hisoblaydi. Uning fikricha, fanlararo bog’liqlik bilimlarni sun’iy ravishda bo’linib ketishining oldini oladi hamda o’quvchilar ongida umumlashtirilgan bilimlar tizimini vujudga keltiradi⁴.

Boshlang’ich ta’limda predmetlararo aloqalarning mohiyati ayniqsa yaqqol namoyon bo’ladi. Chunki kichik yoshdagi o’quvchilar atrof-muhitni yaxlit holda idrok etadi, ular uchun fanlar o’rtasidagi chegaralar shartli xarakterga ega. Shu sababli boshlang’ich sinflarda predmetlararo aloqalarni hisobga olgan holda darslarni tashkil etish pedagogik jihatdan asoslangan va tabiiy jarayon hisoblanadi. Predmetlararo aloqalar didaktikaning asosiy tamoyillari bilan uzviy bog’liq holda amalga oshiriladi. Xususan, ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik va faollik, ko’rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi tamoyillari fanlararo yondashuv orqali yanada samarali ro’yobga chiqadi. Ilmiylik tamoyili fanlararo aloqalar orqali o’quvchilarga ilmiy tushunchalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Masalan, matematika darslarida o’rganilgan o’lchov birliklari atrof-muhitni o’rganish yoki texnologiya fanida amaliy faoliyat bilan bog’langanda, bilimlar yanada mustahkamlanadi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili esa fanlararo aloqalar orqali ta’lim mazmunini mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu jarayonda har bir fan boshqa fanlar bilan uzviy aloqada o’rganilib, o’quvchilarda yaxlit bilimlar tizimi shakllanadi. Predmetlararo aloqalarning samaradorligi o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog’liq. L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko’ra, bola bilimlarni mustaqil egallashdan ko’ra, kattalar yoki tengdoshlari yordamida, integratsiyalashgan faoliyat jarayonida samaraliroq o’zlashtiradi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining tafakkuri ko’proq obrazli va konkret xarakterga ega bo’lib, ular abstrakt tushunchalarni qiyinchilik bilan qabul qiladi. Predmetlararo aloqalar esa abstrakt tushunchalarni konkret misollar orqali tushuntirish imkonini beradi. Masalan, ona tili darslarida o’rganilgan matn mazmunini tasviriy san’at darsida rasm orqali ifodalash o’quvchilarning idrokini faollashtiradi.

J. Brunerning spiral ta’lim nazariyasiga ko’ra, bilimlar turli fanlar doirasida qayta-qayta uchrab, har safar chuqurlashib borishi kerak. Bu jarayonda predmetlararo aloqalar bilimlarning mustahkam va barqaror bo’lishini ta’minlaydi.

Boshlang’ich ta’lim jarayonida predmetlararo aloqalarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo’ladi:

² Vigotsky L.S. Mind in Society. — Harvard University Press, 1978.

³ Bruner J. The Process of Education. — Harvard University Press, 1960.

⁴ Леднев В.С. Слдержание образования. — Москва: Педагогика, 2002.

- o'quvchilarda yaxlit ilmiy dunyoqarash shakllanadi;
- bilimlar ongli va mustahkam o'zlashtiriladi;
- tafakkur, xotira va nutq faol rivojlanadi;
- o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi kuchayadi;
- kompetensiyaviy yondashuv samarali amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, predmetlararo yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faolligi va mustaqilligi sezilarli darajada ortadi. Predmetlararo aloqalar masalasi jahon pedagogikasida uzoq tarixga ega bo'lib, dastlab progressiv pedagogika vakillari tomonidan ilgari surilgan. XX asr boshlarida amerikalik pedagog va faylasuf Jon Dyui ta'lim jarayonida fanlarni qat'iy chegaralarga ajratib o'qitish o'quvchilarning tabiiy bilish ehtiyojlariga zid ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha, ta'lim real hayot bilan uzviy bog'liq bo'lishi, fanlar esa o'quvchining amaliy faoliyati jarayonida tabiiy ravishda integratsiyalashishi lozim.

Dyui ta'limni "tajriba orqali o'rganish" jarayoni sifatida talqin qilib, predmetlararo aloqalarni o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim vosita deb hisoblagan. Bu yondashuv ayniqsa boshlang'ich ta'lim uchun muhim bo'lib, u o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shveysariyalik psixolog J.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasida ham fanlararo integratsiyaning psixologik asoslari ochib berilgan. Piaje bolalarning tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'kidlab, boshlang'ich maktab yoshida bilimlar konkret-amaliy faoliyat orqali samarali o'zlashtirilishini ilmiy asoslagan. Bu esa fanlararo aloqalarni keng qo'llashni taqozo etadi.

O'zbekiston pedagog olimlari ham predmetlararo aloqalar masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. N. Sayidahmedov, R. Eshmuhamedov, B. Xodjayev kabi olimlar ta'limda integratsiya va innovatsion yondashuvlarni samaradorlik omili sifatida e'tirof etadilar.

N. Sayidahmedovning fikricha, boshlang'ich ta'limda predmetlararo aloqalarni tashkil etish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi⁵ R.Eshmuhammedov esa integratsiyalashgan darslar o'quvchilarda kreativ fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishini ta'kidlaydi⁶

XULOSA(ВЫВОДЫ / CONCLUSION)

O'tkazilgan nazariy va tahliliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, predmetlararo aloqalar boshlang'ich ta'lim jarayonining ajralmas didaktik komponenti hisoblanadi. Ular o'quvchilarda bilimlarni alohida, parchalanib qolgan holda emas, balki yaxlit va tizimli tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning psixologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlari fanlararo integratsiyani taqozo etadi.

Maqolada keltirilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, predmetlararo aloqalar:

- o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi;
- bilimlarni ongli o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llash imkonini kengaytiradi;
- tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi;
- kompetensiyaviy yondashuvni amalda ro'yobga chiqaradi.
- Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari fanlararo integratsiyaning universalligini va pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

⁵ Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2018.

⁶ Eshmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2019

Ayniqsa, J. Dyui, L.S. Vigotskiy, J. Bruner kabi olimlarning konsepsiyalari boshlang'ich ta'limda predmetlararo aloqalarni joriy etishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.
2. Vigotsky L.S. Mind in Society. — Harvard University Press, 1978.
3. Bruner J. The Process of Education. — Harvard University Press, 1960.
4. Леднев В.С. Содержание образования. — Москва: Педагогика, 2002.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2018.
6. Eshmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent, 2019.
7. Drake S.M. Interdisciplinary Curriculum. — ASCD, 2012.
8. Fogarty R. How to Integrate the Curricula. — Corwin Press, 2009.